Ilmiy jihatdan, shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasining ta'riflari, tasniflari, huquqiy himoya shakllari va ularning jinoyat tarkibidagi o'rni borasida nazariy hamda metodologik qarashlar xilma-xil bo'lib, ularni tahlil qilish va umumlashtirish zarurati mavjud.

Amaliy jihatdan, huquqni qo'llash jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash, kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashda ko'plab tushunmovchiliklar hamda muammolar kuzatilmoqda.

Axborot texnologiyalari, raqamli xizmatlar va platformalarning jadal rivojlanishi sharoitida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari nafaqat davlat va tijorat xizmatlarini ko'rsatishda qo'llanmoqda, balki noqonuniy

manfaatlar obyektiga ham aylanmoqda. Bunday ma'lumotlarning sizib chiqishi, noqonuniy tarqatilishi yoki ulardan ruxsatsiz foydalanilishi nafaqat moliyaviy, balki ma'naviy, ayrim hollarda esa jismoniy zarar keltirishi mumkin. Shu bois shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda nafaqat normativ-huquqiy, balki jinoyat-huquqiy munosabatlarni ham kuchaytirish zarurati ortib bormoqda.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda ilmiy tahlilning zamonaviy usullari, huquqiy nazariya va amaliyotda qo'llanadigan umumiy hamda xos ilmiy yondashuvlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi dissertatsiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tanlanib, unda mantiqiy tahlil va umumlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, ilmiy-doktrinal yondashuv, empirik tahlil, qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish hamda tavsiyaviy modellashtirish usullari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Jahon miqyosida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Milliy hamda xalqaro qonunchilikda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish huquqi shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining tarkibiy qismi sifatida mustahkamlangan.

Axborot jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash ko'lamining keskin kengayishini taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, huquqiy tizimlar oldiga yangi vazifalar va muammolarni qo'ymoqda. Shaxsiy ma'lumotlar raqamli shaxsning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ularning huquqiy himoyasi shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxs xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, boshqa konstitutsiyaviy huquqlarni kafolatlashning asosiy elementi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida shaxsga doir ma'lumotlarga muayyan jismoniy shaxsga taalluqli yoki uni identifi-

katsiya qilish imkonini beradigan, elektron shaklda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy tashuvchida qayd etilgan axborot sifatida ta'rif berilgan.

Mazkur ta'rif xalqaro standartlarga, jumladan, Yevropa Ittifoqining 2016-yilda qabul qilingan General Data Protection Regulation (GDPR) me'yorlariga hamohangdir [1]. Unda shaxsga doir ma'lumotlar insonning shaxsiy hayoti, moliyaviy ahvoli, tibbiy ma'lumotlari va boshqa shaxsiy identifikatorlarini o'z ichiga olishi belgilangan.

Mazkur standartning 4-moddasiga muvofiq, "shaxsiy ma'lumotlar" deganda aniqlangan yoki aniqlanishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxsga (ma'lumotlar subyekti) oid har qanday axborot tushuniladi. Aniqlanishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxs – to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita, jumladan, ism, identifikatsiya raqami, joylashuv ma'lumotlari, tarqatish identifikatori yoki shaxsning jismoniy, fiziologik, genetik, ruhiy, iqtisodiy, madaniy yoki ijtimoiy xususiyatlarini ifodalovchi omillar orqali aniqlanishi mumkin bo'lgan shaxs.

Shuningdek, "ishlov berish" atamasi shaxsiy ma'lumotlar yoki ularning to'plamiga nisbatan amalga oshiriladigan har qanday amaliyot yoki amaliyotlar majmuini anglatadi. Bunga avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda bajariladigan yig'ish, yozib olish, tashkil etish, tarkiblashtirish, saqlash, moslashtirish yoki o'zgartirish, olish, foydalanish, maslahatlashish, uzatish orqali oshkor etish, tarqatish yoki boshqa shaklda taqdim etish, muvofiqlashtirish yoki birlashtirish, cheklash, o'chirib tashlash yoki yo'q qilish kabi jarayonlar kiradi [1].

Hozirgi kunda jamiyatdagi barcha ijtimoiy jarayonlarda raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Amalda hayotning har bir sohasi o'zining "raqamli" analogini topib, virtual makonda aks etmoqda. Huquqiy fan va amaliyot vakillari, umuman olganda, texnik taraqqiyot yutuqlarining shaxs xavfsizligi, jumladan, insonning shaxsiy hayoti sohasiga ham aniq, ham noaniq ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida fikr yuritadi. Raqamli

texnologiyalar rivojlanishi sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni saqlash eng zaif sohalar-dan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar shaxsiy hayot bilan bog'liq va muhofaza qilinishi lozim bo'lgan yangi elementlarning paydo bo'lishiga olib keladi, shaxsiy makonga kirishning yangi usullarini yuzaga keltiradi hamda mavjud huquqiy tartibga solish mexanizmlarining samarador-ligini pasaytiradi. Shu bois mazkur jarayonni nazariy jihatdan chuqur o'rganish va amali-yotda samarali huquqiy choralarni joriy etish dolzarbdir.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shaxsga doir ma'lumotlar tushuncha-siga oid turli qarashlar mavjud. Masalan, M.N. Maleina shaxsga doir ma'lumotlarni "shaxsni identifikatsiya qilish imkonini be-ruvchi jismoniy shaxsning shaxsiy hayotiga oid faktlar, hodisalar va holatlar haqidagi ma'lumotlar" sifatida ta'riflaydi [2]. Biroq bu ta'rifga to'liq qo'shilish mushkul, chunki hodisalar o'z-o'zicha fuqaro haqida ma'lumot emas, balki ma'lumot shakllanishiga sabab bo'luvchi omil hisoblanadi.

V.B. Naumovning fikricha, "veb-manzil, o'rnatilgan dasturiy ta'minot va kompyu-terning ish rejimi to'g'risidagi ma'lumotlar foydalanuvchini emas, balki axborot tex-nologiyalarini identifikatsiya qiladi, shu sababli ular shaxsiy ma'lumotlar doirasiga kirmaydi. Biroq "ma'lumotlar massivining ayrim elementlari foydalanuvchini bevosita identifikatsiya qila olmasa-da, qayta ishlan-gan ma'lumotlarning butun majmui bunday imkoniyatni ta'minlashi" mumkinligini ham istisno qilib bo'lmaydi" [3].

Boshqa nuqtayi nazarga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlar – muayyan inson haqidagi har qanday axborot tashuvchida qayd etilgan va mazkur shaxsni namoyon qiladigan yoki potensial ravishda namoyon qilishi mumkin bo'lgan axborot [4].

Y.Y. Pokamestova "shaxsga doir ma'-lumotlar" tushunchasini bevosita qo'l-lamagan bo'lsa-da, uning fikricha, "shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini himoya qilish ostida

muayyan yoki ushbu axborot asosida aniqla-nadigan jismoniy shaxsga tegishli axborotni qayta ishlashning maxsus huquqiy rejimi tushunilishi zarur. Bu rejimga shaxsning biografik faktlari, normativ ma'lumotlari, mil-lati, yashash joyi, kasalliklari, oilaviy hayoti, odatlari, qiziqishlari, axloqiy, siyosiy, jinsiy va diniy intilishlari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, boshqa shaxslar (jamiyat)ga nisbatan uning xususiyatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar kiradi" deb ta'kidlaydi [5].

M. Park va S. Chai esa shaxsga doir ma'lumotlarga ism, manzil, turmush tarzi kabi muayyan shaxsni aniqlash imkonini be-ruvchi axborotlarni kiritadi [6].

Fikrimizcha, yuqoridagi ta'riflarda shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan bi-roz tor yondashuv mavjud. R. Bekvit va S. Maynvaring esa ism, familiya, ayol ki-shining qizlik familiyasi, manzil, telefon raqami, jinsi, kasallik tarixi va sug'urta ma'lumotlarini shaxsga doir ma'lumotlar si-rasiga kiritadi [7]. Biroq ushbu yondashuvda ham shaxsga doir ma'lumotlarning barcha jihatlarini to'liq qamrab olingan deb bo'lmaydi.

Shaxsiy hayot tarkibiga kiruvchi shaxsga doir ma'lumotlar doirasiga butun oilaviy hayot, qarindoshlik va do'stona aloqalar, turmush tarzi, jinsiy va boshqa shaxsiy munosabatlar, muhabbat, simpatiya va anti-patiya, fikrlash va qiziqishlarning kiritilishi haqida bildirilgan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki bunday yondashuv shaxsga doir ma'lumotlar doirasini haddan tashqari kengaytirib yuboradi hamda amaliyotda aynan qaysi munosabatlar himoya qilinishi kerakligi masalasida muammolarni yuzaga keltiradi.

V. Ruzanova ta'kidlaganidek, dastlab shaxsga doir ma'lumotlarga fuqaroning F.I.Sh., tug'ilgan sanasi, yashash manzili, oi-laviy, ijtimoiy va mulkiy holati, ta'limi, kasbi hamda daromadlari kirgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning doirasi yanada kengayib, geo-lokatsiya, Internet tarmoqlaridagi xatti-hara-katlar, IP manzili kabi telekommunikatsiya bilan bog'liq ma'lumotlar ham qo'shilmoqda

[8]. Biroq ushbu fikr ham bahsli bo'lib, Internet tarmoqlaridagi xatti-harakatlarni shaxsga doir ma'lumotlar tasnifiga kiritish to'g'ri emas, deb hisoblash mumkin.

M. Ismoilov shaxsga doir ma'lumotlarni "shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar" hamda "alohida toifadagi ma'lumotlar"ga ajratishni taklif qiladi. U shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar qatoriga moliyaviy ma'lumotlar (bank hisobraqamlari, bank plastik kartalari), onlayn ma'lumotlar (joylashuv ma'lumotlari, IP-manzillar, onlayn xaridlar, elektron pochta), demografik ma'lumotlar (ism, tug'ilgan vaqt, telefon raqami, fotosurat)ni keltiradi; alohida toifa sifatida esa sog'liq holatiga oid ma'lumotlar (biometrik ma'lumotlar, tibbiy holat) hamda shaxsning ijtimoiy hayotiga doir ma'lumotlar (jinoiy faoliyatga oid ma'lumotlar, ijtimoiy kelib chiqishi, ta'lim)ni sanab o'tadi [9].

Bizningcha, muallifning ma'lumotlarni tasniflashga oid yondashuvi ijobiy jihatlariga ega bo'lsa-da, uning barcha elementlari bilan to'liq kelishib bo'lmaydi. Xususan, demografik turkumga telefon raqami va fotosuratni kiritish demografiya mohiyatiga mos emas: telefon raqam odatda kontakt yoki identifikatsiyalash ma'lumotlari sifatida qaralishi lozim, fotosurat esa biometrik yoki vizual identifikatsiyalash nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi mumkin.

A. Yuldashov esa mazkur masalada Yevropa Parlamenti va Kengashining 2016-yil 27-aprelda qabul qilingan 2016/679-sonli "Jismoniy shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlari va ularning erkin oqimi to'g'risidagi" reglamentiga murojaat qiladi. Reglament shaxsga doir ma'lumotlarni keng qamrovda ta'riflab, ularni "identifikatsiya qilinadigan jismoniy shaxsga tegishli har qanday ma'lumot" deb ataydi; identifikatsiya qilinadigan jismoniy shaxs esa to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita (masalan, ism, identifikatsiya raqami, joylashuv) yoki jismoniy, fiziologik, genetik, ruhiy, iqtisodiy, madaniy yoki ijtimoiy xususiyatlari orqali aniqlanishi mumkin bo'lgan shaxs sifatida tushuniladi [10].

Y. Talapina shaxsga doir ma'lumotlarni uch turga ajratib tahlil qilgan [11]:

birinchidan, muayyan jismoniy shaxsga oid va uning shaxsini aniqlashga qaratilgan umumiy ma'lumotlar – familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, yashash manzili, oilaviy ahvoli, ijtimoiy mavqeyi, mulkiy holati, ma'lumoti, kasbi, daromadi va shunga o'xshash ma'lumotlar;

ikkinchidan, shaxsiy ma'lumotlarning maxsus toifalari – irqi, etnik mansubligi, siyosiy qarashlari, diniy yoki falsafiy e'tiqodlari, sog'lig'i, jinsiy hayoti haqidagi ma'lumotlar;

uchinchidan, biometrik shaxsiy ma'lumotlar – insonning shaxsini aniqlash imkonini beruvchi fiziologik va biologik xususiyatlarini ifodalovchi ma'lumotlar.

G'. Mirzo ham shunga o'xshash yondashuvni ilgari suradi. Uning fikricha, shaxsga doir ma'lumotlar inson haqidagi har qanday ma'lumotlardan iborat bo'lib, ular uch turga bo'linadi: umumiy, maxsus va biometrik ma'lumotlar [12]. Xususan, umumiy ma'lumotlarga insonning ism-familiyasi, pasport va boshqa hujjatlaridagi qaydlar, tug'ilgan sanasi va joyi, elektron pochta manzili, yashash, o'qish va ishlash joylari, oilaviy, ijtimoiy va mulkiy holati, ta'lim olgan joyi, kasbi, daromadi kabi ma'lumotlar kiradi. Maxsus ma'lumotlarga shaxsning irqiy va milliy mansubligi, siyosiy, diniy hamda falsafiy qarashlari, sog'lig'i holati, shaxsiy (intim) hayotiga oid ma'lumotlar kiradi. Biometrik ma'lumotlar esa insonning shaxsini aniqlash imkonini beruvchi fiziologik va biologik belgilarni qamrab oladi. Bular jumlasiga DNKsi, ovozi, ko'z qorachig'i, barmoq izi, yuz qiyofasi, bo'yi va vazni kabi ma'lumotlar kiradi.

Yuqoridagi ta'riflar hamda mamlakatimiz qonunchiligi normalaridan kelib chiqib, shaxsga doir ma'lumotlar deganda muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tashuvchilar, qog'oz yoki boshqa moddiy vositalarda qayd etilgan umumiy, maxsus hamda biometrik ma'lumotlar tu-

shunilishi lozim, degan mualliflik ta’rifi ilgari suriladi.

So’nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda va huquqni qo’llash amaliyotida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy asoslarini, jumladan, jinoyat-huquqiy mexanizmlarini kuchaytirishga oid chaqiriqlar tobora kuchayib bormoqda [13]. Global axborot jamiyatining jadal rivojlanishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining takomillashuvi ma’lumotlar almashinuvi hajmi va tezligini oshirsa-da, ularning no-qonuniy modifikatsiyasi yoki o’g’irlanishi kabi muammolarni to’liq bartaraf etmayapti. Shu sababli shaxsiy xususiyatga ega bo’lgan ma’lumotlarga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Bu esa huquqiy doktrina va amaliy qonunchilik oldiga shaxsiy ma’lumotlarning huquqiy himoyasini ta’minlash vazifasini qo’yimoqda.

Mazkur masalaning dolzarbligidan kelib chiqib, mamlakatimiz huquqiy tizimida shaxsiy ma’lumotlarga oid munosabatlarni tartibga solish quyidagi uch yo’nalishda rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir:

- shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilik asosini shakllantirish va takomillashtirish;
- shaxsiy ma’lumotlar aylanmasi sohasida amal qiluvchi prinsiplarni belgilash;
- shaxsiy ma’lumotlar subyektlarining huquqlarini ta’minlashga qaratilgan nazorat va institutsional mexanizmlarni yaratish.

Bugungi kunda shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berish xavfsizligini huquqiy tartibga solish borasida bir qator qonunchilik asoslari shakllantirilgan bo’lsa-da, axborot tizimlarining rivojlanishi, integratsiya va globallashtirish jarayonlari mavjud normalarni xalqaro me’yorlarga muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa Internet tarmog’ida shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berish xavfsizligini huquqiy ta’minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish masalasini dolzarb qilib qo’yimoqda.

Shuningdek, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi shaxsiy hayot daxlsizligi

masalasini ham qayta ko’rib chiqishni talab etmoqda. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida “har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega” ekani mustahkamlab qo’yilgan.

Xalqaro huquq normalarida ham shaxsiy ma’lumotlar va shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasiga muvofiq, “hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o’zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, yozishmalar siriga yoki uning sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson bunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoyalalanish huquqiga ega” [14].

Shuningdek, 1950-yil 4-noyabrda Rimda qabul qilingan Yevropa Kengashining Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to’g’risidagi konvensiyasining 8-moddasida “har bir inson o’zining shaxsiy va oilaviy hayotiga, uy-joyiga va yozishmalariga hurmat bilan munosabatda bo’linishi huquqiga ega. Davlat hokimiyati organlari tomonidan bu huquqni amalga oshirishga aralashuvga yo’l qo’yilmaydi, qonunda nazarda tutilgan va demokratik jamiyatda milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlash, mamlakatning iqtisodiy farovonligi, tartibsizliklar yoki jinoyatlarning oldini olish, sog’liqni saqlash yoki axloqni himoya qilish yoki boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo’lgan hollar bundan mustasno”ligi belgilangan [15].

1981-yil 28-yanvarda Yevropa Kengashi tomonidan Shaxslarni shaxsga doir ma’lumotlariga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berilishi munosabati bilan himoya qilish to’g’risidagi konvensiya qabul qilingan. Uning 1-moddasida ushbu hujjatning maqsadi sifatida har bir Tomon hududida barcha jismoniy shaxslarning, fuqaroligi yoki yashash joyidan qat’i nazar, shaxsiy ma’lumotlariga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish jarayonida ularning huquq va asosiy erkinliklarini, xususan, shaxsiy

hayot daxlsizligi huquqini hurmat qilishni ta'minlash ekani belgilangan [16].

Butun dunyoda 2007-yildan buyon har yili 28-yanvar Xalqaro shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish kuni (Data Protection Day) sifatida nishonlanadi. Ayrim mamlakatlarda esa u "Maxfiylik kuni" (Data Privacy Day) nomi bilan bayram qilinadi. Mazkur sana Internet tarmog'idan foydalanuvchilarni axborot madaniyati va maxfiylik qoidalariga rioya qilishga undash, shuningdek, virtual va real hayot xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida ta'sis etilgan.

Mamlakatimizda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi (Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega);

2) "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun;

3) "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonun;

4) "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun;

5) O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (141²-modda);

6) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (462-modda);

7) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat

reyestri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 71-sonli qarori;

8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 570-sonli qarori;

9) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2023-yil 14-noyabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlar bazasining mulkdori va (yoki) operatorining shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berilishini hamda ularning himoya qilinishini ta'minlovchi tuzilmaviy bo'linmasi yoki vakolatli shaxsi faoliyatini tashkil etishning namunaviy tartibini tasdiqlash haqida" 19-mh-son buyrug'i;

10) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2023-yil 15-noyabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning namunaviy tartibini tasdiqlash haqida" 20-mh-son buyrug'i;

11) boshqa tegishli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar.

F. Madiyev ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va ularning jamiyat hayotida keng qo'llanishi fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlash masalalarini chuqur ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining mazmun-mohiyatini konseptual hamda ilmiy-metodologik jihatdan o'rganish va tahlil qilish muhimdir. Har bir shaxsning o'ziga ma'naviy-axloqiy baho berishga bo'lgan huquqi shaxsiy huquq sifatida subyektiv xususiyatga ega. Shu sababli uning qadr-qimmati va obro'-e'tibori jamiyatdagi ijtimoiy fikr bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin [17].

2019-yil 2-iyulda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, o'z navbatida, ushbu sohada qonunchilikni buzganlik uchun alohida javobgarlik belgilashni taqozo etdi. Mazkur qonun qabul qilinishidan avval ham shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun ma'lum javobgarlik mavjud edi. Masalan, shaxsni sharmanda qiluvchi ma'lumotlarni

tarqatish orqali pul talab qilish holatlari tovlamachilik sifatida, axborot texnologiyalaridan foydalanib shaxsiy ma'lumotlarni qo'lga kiritish axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar sifatida baholangan. Agar shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish yoki oshkor qilish tahdidi ostida o'z joniga qasd qilish sodir etilgan bo'lsa, bu Jinoyat kodeksining 103-moddasi bo'yicha javobgarlikka sabab bo'lgan. Biroq shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun bevosita javobgarlik belgilanmaganligi amaliyotda ko'plab tushunmovchiliklarga sabab bo'lib kelgan.

2019-yil 8-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-548-sonli Qonun bilan shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar Jinoyat kodeksining 141²-moddasiga va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 462-moddasiga kiritildi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jinoyat-huquqiy javobgarlikni

belgilash zarurati quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, bunday jinoyatlar shaxsning Konstitutsiyada kafolatlangan shaxsiy hayot daxlsizligi, sha'ni va obro'siga jiddiy zarar yetkazadi;

ikkinchidan, raqamli texnologiyalarning inson hayotiga chuqur kirib borayotgan hozirgi sharoitda shaxsga doir ma'lumotlar iqtisodiy muomala obyekti, ya'ni tovar sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, internetdagi "qora bozor"da ma'lumotlar bazalarini o'g'irlash va ularni sotish holatlari ortib bormoqda;

uchinchidan, shaxsga doir ma'lumotlarning oshkor etilishi firibgarlik, kiberfiribgarlik, tovlamachilik, o'g'irlik kabi turli jinoyatlarning ko'payishiga bevosita sabab bo'lmoqda;

to'rtinchidan, ushbu sohada faqat fuqarolik-huquqiy yoki ma'muriy javobgarlikni qo'llash yetarli samara bermayapti, shuning uchun jinoyat-huquqiy choralar muhim ahamiyat kasb etadi;

beshinchidan, shaxsiy ma'lumotlarning internet orqali tarqalib ketishi natijasida ijtimoiy hayotda salbiy oqibatlar – oilaviy ajralishlar, o'z joniga qasd qilish kabi holatlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

REFERENCES

1. General Data Protection Regulation. Available at: <https://gdpr-info.eu/art-1-gdpr/>
2. Maleina M.N. Pravo na taynu i neprikosnovennost personalnykh dannyx [Right to the secrecy and inviolability of personal data]. *Journal of Russian Law*, 2010, no. 11, pp. 18–28.
3. Naumov V.B. Pravo i Internet: ocherki teorii i praktiki [Law and the Internet: Essays on Theory and Practice]. Moscow, University book house, 2002, p. 132.
4. Bachilo I.L., Lopatin V.N., Fedotov M.A. Informatsionnoe pravo [Information law]. St. Petersburg, Yuridicheskii tsentr Press Publ., 2005, p. 244.
5. Pokamestova Ye.Yu. K voprosu o personalnykh dannyx i ikh klassifikatsii v otechestvennoy pravovoy sisteme [To the question of personal data and their classification in the technological legal system]. Problems of the modern world: legal-psychological, legal, social-economic aspects: Proceedings of the third international scientific-practical conference. Voronej, MOU VEPI Publ., 2006, pp. 71–76.

6. Park M., Chai S. The Value of Personal Information: An Exploratory Study for Types of Personal Information and Its Value. *Asia Pacific Journal of Information Systems*, 2018, vol. 28, no. 3, p. 155.
7. Beckwith R., Mainvaring S. Privacy: Personal Information, Threats, and Technologies. *IEEE Xplore*, 2009, p. 2.
8. Ruzanova V.D. Zakonodatel'stvo v oblasti personalnykh dannykh kak institut informatsionnogo zakonodatel'stva [Legislation in the field of personal data as an institute of information legislation]. *Legal Bulletin of Samara University*, 2019, no. 2, pp. 67–68.
9. Ismoilov M. Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi tushunchasining nazariy huquqiy tahlili [Theoretical legal analysis of the concept of personal data privacy]. *Science and Innovation*, 2022, vol. 1, no. 3, pp. 62–71.
10. Yuldashov A. Shaxsga doir ma'lumotlar va mualliflik huquqining o'zaro kesishmasi: huquqiy nazariya va amaliyot [The intersection of personal data and copyright: legal theory and practice]. *Lawyer's Newsletter*, 2023, no. 6, pp. 54–67.
11. Talapina E.V. Zashchita personalnykh dannykh v tsifrovuyu epokhu: rossiyskoe pravo v evropeyskom kontekste [Personal Data Protection in the Digital Age: Russian Law in the European Context]. *Works of the Institute of State and Law of the Russian Academy of Sciences*, 2018, vol. 13, no. 5, pp. 117–150.
12. Mirzo G'. Shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi: xalqaro huquq, milliy qonunchilik va amaliy tajriba [Personal data protection: international law, national legislation and practical experience]. Available at: <http://pravacheloveka.uz/uz/news>
13. Kudashkin Ya. Osobennosti klassifikatsii personal'nykh dannykh [Features of classification of personal data]. *Derzhavin Readings in the Republic of Moldova*, 2015, p. 118.
14. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [Universal Declaration of Human Rights]. Available at: <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
15. Evropeyskaya konventsia o zashchite prav cheloveka i osnovnykh svobod [European Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms]. Available at: <https://www.coe.int/ru/web/compass/the-european-convention-on-human-rights-and-its-protocols>
16. Konventsia o zashchite chastnykh lits v otnoshenii avtomatizirovannoy obrabotki dannykh lichnogo xaraktera [Convention on the protection of private individuals in relation to the automatic processing of personal data]. Council of Europe, 1981. Available at: <https://rm.coe.int/1680078c46>
17. Madiev F. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini genizisi [The origin of constitutional guarantees of the right to privacy]. *Nauka i texnologiya v sovremennom mire*, 2023, vol. 2, no. 20, pp. 4–12. Available at: <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/20096>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 3-son

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3